



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI




No9
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



*Elektron nashr. 268 sahifa,
2-sentyabr, 2025-yil.*

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F.O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalarini tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F.O. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – doctor of philosophy (PhD) in psychology

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Maktabgacha ta'lim tashkiloti innovatsion faoliyatini rivojlantirish jarayoni.....	14
Ibragimova Gulsanam Nematovna	
Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim metodikasida qo'llanilishi va o'qituvchi kompetentligiga ta'siri	22
Abduyev Sheroz	
Boshlang'ich ta'limda "tabiatshunoslik" fanini raqamli platformalar orqali o'qitish metodikasini takomillashtirish: 5e modeli asosida dizayn, baholash va joriy etish.....	25
Ahmadaliyev Shohruh Bahromjon o'g'li	
Ingliz va rus leksikografiyasida o'zbek milliy taom nomlarining lingvistik tahlili	30
Bobojonova Zarina Rashidovna	
Rahbarlarda til bilish darajasi va hissiy intellekt (eq): o'zaro bog'liqlikni o'rganish	34
Isaqlulova Baxtigul Xo'jamovna	
Frazeologizmlarni o'rgatishda matn asosida integratsiyalashgan dars modeli: xorijiy til o'rganuvchilar tajribasi	38
Jumayeva Sadbarg Mirolimovna	
O'zbekistonda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlari: rivojlangan davlatlar tajribasi tahlili	42
Karimova Moxichehra Rixsibayevna	
Rus va ingliz tillarida sharqona realiyalarning leksik-semantik tasnifi	46
Kulmamatova Aziza Do'stmamat qizi	
TRIZ metodikasi asosida texnokratik bolalar bilan ishlash tizimini takomillashtirish	50
Orifjonova Mavludaxon Abduqaxxor qizi	
Raqamli ta'lim muhitida pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish.....	53
Raximberganova Munajat Muzaffar qizi	
Structure of Social Conflict and Stages of its Development	57
Zaynutdinova Shahnoza Yuldashevna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining ijodiy faoliyatini baholash va rag'batlantirish tizimini takomillashtirish.....	60
Abduraxmonova Nigoraxon Akramali qizi	
Expression of National Mental Characteristics in the Uzbek Lullaby.....	64
Alimbayeva Shaxlo Tursunovna	
Bo'lajak "texnologiya" fani o'qituvchilarini kasbiy faoliyatga tayyorlashda kreativ kompetentlikni rivojlantirish tizimining pedagogik zarurati	69
Avazov G'oyibnazar Berdiyevich	
Bo'lajak tarbiyachilarda integratsiyalashgan ta'lim faoliyatini rivojlantirish orqali kommunikativ salohiyatini shakllantirish	72
Baratova Yulduz Asadullayevna	
Umumta'lim maktablarida molekulyar fizikani o'qitishning hozirgi holati	76
Boymirov Sherzod Tuxtayevich, Xudoynazarova Visola Musurmonqul qizi	
Ingliz tilini o'qitishda talabalarining mustaqil ta'lim olish kompetensiyasini akt vositasida rivojlantirish	80
Ergasheva Sevaraxon Ravshanjon qizi	
Maktabgacha ta'lim pedagoglarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish istiqbollari.....	84
O'rinova Feruzaxon O'ljayevna, Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi	
IIV litsey o'quvchilarining liderlik kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik xususiyatlari.....	90
Gadoyeva Dildora Baxtiyorovna	
Improving the System of Human Resource Capacity Management in Higher Education Institutions: Evidence from Uzbekistan	98
Imomov I., Umirova D.	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida tarbiyalanuvchilarni mantiqiy va tanqidiy fikrlashga o'rgatishning zamonaviy usullari.....	104
Iskandarova Munisa Bahodir qizi	
Tarbiyachi-pedagoglarning emotsional kompetensiyasini rivojlantirish	107
Jovmirzayeva Nargiza Quvondiqovna	



Maktabgacha ta'lim yoshdagi giperaktiv bolalarga ta'lim berishning pedagogik-psixologik usullari	110
Jo'rayeva Nargiza Toirovna, Kamalova Sarvinov	
Blum taksonomiyasi asosida ilmiy kompetentlikni takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	113
Mustafayeva Nilufar Ulashovna	
Maktabgacha yoshdagi ovoz buzulishiga ega bolalar bilan guruhli mashg'ulotlarni tashkil qilish	117
Umida O'tbasarova Mexmanovna, Maksudbekova Xovvaxon Xamidbek qizi	
Bolalar jamoasida do'stona munosabatlarni shakllantirishda rivojlanish markazlarida loyiha asosida o'qitish texnologiyasidan foydalanish usullari	121
Quronova Ismigul Xolmurod qizi	
Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarda innovatsion metodlar orqali o'z-o'zini rivojlantirish ko'nikmalarini shakllantirish metodikasi	126
Rustamova Davlatxon Toyirjon qizi	
Oliy ta'limda tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishning innovatsion modellari	131
Sanayeva Surayyo Bobonazarovna	
"Tibbiy radiologiya" fanini o'qitishda pedagogik muloqot orqali tanqidiy operativ muloqotni o'stirishning o'ziga xos xususiyatlari	139
Shukurova Sevara Ilhomovna	
Improving High Jump Techniques	143
Tajimbetov Anvar Tengeldayevich	
Filologik va ijtimoiy-siyosiy fanlarda ta'lim jarayonining innovatsion metodlari	146
Yuldasheva Dilnoza Bekmurodovna	
Понятие логического мышления и его особенности у младших школьников	149
Ахмаджонова Нозима Нодиржон кизи	
Интеграция психологии, обучения английскому языку, дошкольного образования и туризма: междисциплинарная модель формирующего опыта	152
Омонуллаева Дилофуза Асадулла кизи	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning o'yin faoliyatida ijtimoiy motivlarni shakllantirish usullari	157
Abduvaxobova Nodira	
Boshlang'ich ta'limda kognitiv faollikni rivojlantirishning afzalliklari	160
Ismailova Nozima Umaraliyevna	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarini matnni tahlil qilishga o'rgatishda zamonaviy yondashuvlarning ahamiyati	164
Utanbayeva Dildora Abdixadirovna	
Dorivor o'simliklar kursini o'qitish metodikasini takomillashtirishda keys texnologiyalaridan foydalanish	168
Mirzaboyev Timur Bisenbay o'g'li	
Oliy ta'lim talabalarida ijtimoiy-axloqiy kompetensiyani rivojlantirish: empirik tadqiqot natijalari	171
To'raqulov Akbar Rustam o'g'li	
Gerontotexnologiya ijtimoiy-pedagogik innovatsiya sifatida	175
Temirova Muyassar Abdulkarim qizi	
O'quvchilarni ma'naviy-axloqiy tarbiyalashda Sharq mutafakkirlarining qarashlaridan foydalanish	180
Raximova Surayyo Otabek qizi	
Yoshlarni kasb tanlashda ruhiy tayyorgarlik va shaxsiy qobiliyatlarni baholash	183
Biysenov Temirbek Taumuratovich	
Talabalarni ta'limiy qadriyatlar asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimini takomillashtirishning ahamiyati	188
Choriyeva Surayyo Choriyevna	
Differences Between Computer-Based and Paper-Based Assessment in Inclusive Education	192
Davidova Sayyora Sirojiddin kizi	
Raqamli muhit sharoitida ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonining pedagogik modeli va tajriba-sinov natijalari	196
Donayeva Nozimaxon Norbo'tayevna	
Intellekt xarita yordamida o'quvchilarda "emotsional intellekt"ni rivojlantirish	201
G'aniyev Abduqahhor Gadoyevich	
Maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalarda o'yin faoliyatining psixologik-pedagogik ahamiyati	206
Isayeva Mushtariy Alisher qizi	
Umumiy o'rta ta'lim muassasalarini innovatsion yondashuv asosida boshqarishning nazariy asoslari	210
Mannanova Nargiza Xaydarovna	

Ingliz tilini o'rgatishda ona tilidan keng foydalanishning salbiy va ijobiy jihatlari	215
<i>Masharipova Kumushoy Amin qizi</i>	
The Relationship Between Critical Thinking and Reading Comprehension in Primary School Students	218
<i>Mavlonova Dildora Shukhrat kizi</i>	
Tasviriy san'at mashg'ulotlarida zamonaviy metodlardan foydalanish	222
<i>N. K. Musayeva, U. O. Ziyatova</i>	
Singapurning ta'lim falsafasi: korporativ madaniyatni ma'naviy-ma'rifiy rivojlanish bilan integratsiyalash ...	226
<i>Nishonov Xayrulla Xolmirzaevich</i>	
The Anthropocentric Paradigm in Modern Linguistics: Cognitive Linguistics and Linguacultural Studies in The Study of Language, Consciousness, and Culture	230
<i>Rajabova Shaxlo Shodmonovna</i>	
Bugungi globallashuv davrida ta'lim tizimini rivojlantirish va uning sifatini oshirishda nostandart yondashuvning ahamiyati	234
<i>Ramazonova Salomat Saidovna</i>	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini kreativ sinflar ishini tashkil etishga tayyorlash	238
<i>Saidova Gulruh Halim qizi</i>	
O'zbek oilalarida ota-ona va farzand munosabatlarini tashxis qilishning psixologik xususiyatlari (Farg'ona vodiysi misolida)	242
<i>Turg'unboeva Azizaxon G'ulomovna</i>	
Сущность и специфика развития билингвизма у детей дошкольников	246
<i>Истамова Нигора Азимжановна</i>	
Zamonaviy rahbarning innovatsion boshqarish texnologiyalaridan foydalanishning afzalliklari	249
<i>Xakimova Dildora Mashrabjonovna</i>	
Креативный подход к развитию лингвометодического мышления студентов-филологов	253
<i>Ходжаниязова Айгуль Айтмуратовна</i>	
Umumta'lim maktablarida tarbiya darslarini tashkil etish ijtimoiy zarurat sifatida	257
<i>Rashidova Gulnoza G'ulomovna</i>	
Pedagogik risklarni boshqarishning nazariy asoslari va globallashuv jarayonidagi ahamiyati	261
<i>Xaydarov Sulaymon Amirqulovich</i>	
Xronotop nazariyasiga tahliliy yondoshuvlar va qarashlar	265
<i>Avazov Vahabjon Tolibjon o'g'li</i>	



XRONOTOP NAZARIYASIGA TAHLILY YONDOSHUVLAR VA QARASHLAR

Avazov Vahabjon Tolibjon o'g'li

Sharof Rashidov nomidagi

Samarqand davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Zamonaviy fan tarkibidan o'rin olgan xronotop tushunchasining badiiy in'ikosi, uning fanlararo genezisi va turfa xil qarashlarning shakllanishiga asos bo'lgan omillar tahlil qilindi. Shuningdek, bu atamaning keyinchalik falsafa sohasida termin sifatida qo'llanilishi hamda san'at asarlari tarkibida ifodalanishi jahon va o'zbek olimlarining nazariy qarashlari asosida yoritildi. Tadqiqot davomida ma'lum bir tushunchalar va talqinlar ilgari surildi. Bugungi kunda xronotop badiiy asar arxitektonikasining asosiy unsuri sifatida e'tirof etilib, matn tarkibidagi o'ziga xos funksiyasi ochib berildi.

Kalit so'zlar: xronotop, fan, fiziologiya, inson, tabiat, makon, zamon, harakat, qarashlar, talqin, tushunchalar.

Abstract: The article examines the artistic manifestation of the concept of the chronotope, its interdisciplinary genesis, and its role in shaping diverse perspectives within modern science. It further highlights the use of the chronotope as a philosophical term and its representation in works of art, analyzed through the theoretical insights of both international and Uzbek scholars. Several concepts and interpretations are advanced. In contemporary literary studies, the chronotope is recognized as a fundamental element of the architectonics of artistic texts, fulfilling a distinctive function within their structure.

Key words: chronotope, science, physiology, human, nature, space, time, movement, perspectives, interpretation, concepts.

Аннотация: В статье рассматривается художественное отражение понятия хронотопа, его междисциплинарный генезис и роль в формировании различных взглядов. Особое внимание уделено использованию данного термина в философии и его проявлению в произведениях искусства, что анализируется на основе теоретических воззрений зарубежных и узбекских учёных. В исследовании выдвинуты определённые концепции и интерпретации. В современном литературоведении хронотоп рассматривается как важнейший элемент архитектоники художественного произведения, выполняющий специфическую функцию в структуре текста.

Ключевые слова: хронотоп, наука, физиология, человек, природа, пространство, время, движение, взгляды, интерпретация, понятия.

KIRISH

Asrlar davomida shakllanib kelgan insoniyatning makon va zamonda harakat etishi tabiiy holdir. Asta-sekinlik bilan bo'lsa-da, geografik makon sari harakat etishining o'ziyoq uning ongli tafakkuridan dalolat beradi. Bu esa keyinchalik badiiy tafakkurga ham sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Eng qadimgi xalq og'zaki ijodidan boshlab, yuksak darajaga ko'tarilgan yozma badiiy asarlarda ham makon va zamon talqinlari davr ziddiyatlarini, inson qalbidagi tuyg'ularni yuzaga chiqarishga zamin bo'ldi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rus adabiyotshunosi M. Baxtin ta'kidlaganidek: "Yunon romaniga xos avantyur zamon tahliliga yakun yasashdan oldin bir qadar umumiyroq bo'lgan yana bir narsa, ya'ni romanlar sujetini tashkil etuvchi unsur vazifasini bajaradigan alohida mavzular haqida so'z yuritishimiz maqsadga muvofiqdir. Visol – ayriliq, yo'qotish – erishish, izlash – topish, tanish – tanimaslik singari mavzular nafaqat turli davr va tiplarga doir romanlar sujetida, balki adabiy turlarning boshqa janrlari (epik, dramatik, hatto lirik janrlar)da ham muhim tarkibiy qismlar hisoblanadi. Ushbu mavzular o'z tabiatiga ko'ra xronotopikdir" [1, 59-bet]. Rus munaqqidi Mixail Baxtinning bu nazariy qarashlari badiiy asarlarga xos xususiyat ekanligini alohida qayd etgani holda, biz yuqorida ta'kidlagan

nimizdek, termin (atama)ning ilk shakllanishi, uning ijtimoiy fanlar kesimida shakllanishi haqidagi qarashlarga ham munosabat bildirib o'tmoqchimiz.

Filologik ilmiy muhitda ko'p yillar davomida tadqiqotchilar nazdida barqarorlashgan tasavvurga qarshi o'laroq, xronotop konsepti dastlab adabiyotshunoslikda emas, balki fiziologiya, psixologiya va falsafa fanlari bo'yicha ilmiy izlanishlarning kesishish nuqtasida ishlab chiqilgandir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mazkur tadqiqot uchun ma'lumotlar adabiyotshunoslik, falsafa va tilshunoslikka oid ilmiy manbalar, shuningdek, xronotop nazariyasini yoritgan mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy ishlari asosida yig'ildi. Asosiy manbalar sifatida ilmiy maqolalar, monografiyalar, dissertatsiyalar va elektron kutubxonalardagi ochiq manbalar tahlil qilindi. Olingan ma'lumotlar qiyosiy-tipologik yondashuv asosida ko'rib chiqildi, mualliflar nazariy qarashlari o'zaro solishtirildi hamda ilmiy umumlashtirish usuli qo'llandi. Shuningdek, kontent-tahlil orqali xronotop tushunchasining turli fanlar kesimidagi talqinlari ajratib olindi va ularning adabiy matnlarni tahlil etishdagi qo'llanish imkoniyatlari tizimlashtirildi. Natijada, tushunchaning fanlararo xususiyatlari ilmiy dalillar asosida baholandi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Xronotop bilan bog'liq tadqiqotlarda mualliflik M. M. Baxtinga nisbat berilsa-da, istilohning ilk manbaini A. Uxtomskiyning ishlari asosida ko'rsatish to'g'ri bo'ladi. Aleksey Alekseevich Uxtomskiy (1875–1942) – asab tizimi faoliyatining tamoyillarini qamrab olgan dominant xususidagi ta'limotning asoschisi, rus fiziolog olimi va faylasufi.

Olimning ilmiy dunyoqarashi nemis mutafakkirlari ta'sirida shakllanib, bu maktab vakillari (Vilgelm Osvald, Teodor Lipps, Ernst Max, Alois Ril, Vilgelm Vundt, Rixard Avenarius, Fridrix Paulsen va boshqalar) psixofiziologiya tadqiqotlari orqali olingan ma'lumotlardan falsafiy kategoriyalarni ishlab chiqishga intilishgan. Ushbu maktab qarashlarini chuqur o'rgangan A. Uxtomskiy uzluksiz makon–zamon yaxlitligini (xronotopni) jonli idrok etishning shakli degan xulosaga olib keladi.

Jonli idrok etish orqali ongimiz sezgi a'zolari jo'natgan ma'lumotlar biz uchun yaxlit bir butun olam manzarasini yig'ib beradi. Uxtomskiy uchun xronotop mavhum bir falsafiy mohiyat emas, balki jonli mavjudotlarga atrof-muhit bilan uyg'unlikda o'zaro mavjud bo'lish imkonini beruvchi biologik tirik qolish mexanizmidir [2, 56-bet]. Rus olimi A. V. Politovning qarashlariga nazar solar ekanmiz, A. Uxtomskiy va M. Baxtin nazariy qarashlaridagi farqli va yaqin jihatlarni alohida qayd qilib o'tishida ham asoslar mavjud edi [3, 4-bet].

A. V. Politov ham ilk nazariy qarashlarni dastlab inson fiziologiyasi va falsafa fanlari doirasida vujudga kelgan istiloh keyinchalik badiiy asarlar tahliliga nisbatan tadbiiq etilib, Baxtin tomonidan filologik ilmiy olamga moslashtirilganligini ta'kidlaydi. Chunki M. Baxtingacha ham u yoki bu darajada atama haqidagi qarashlar mavjudligini alohida qayd etish lozim: “Zamon va makon san'atga taalluqli ekanligini birinchilardan bo'lib G. E. Lessing, keyinroq G. V. Gegel ta'kidlagan bo'lsa, XIX asr oxiri, ayniqsa XX asr san'atning barcha turlarini, shu jumladan, badiiy adabiyot va adabiyotshunoslikning diqqat markaziga tortilayotgan mavzulardan biriga aylandi” [4, 41-bet].

Qayd qilinganidek, turli fanlar kesimidagi bu tushuncha asta-sekinlik bilan falsafa va filologik terminlar qatoridan o'rin oldiki, bu kategoriyasiz badiiy asarlarning poetik xususiyatlarini tahlil qilish murakkablik kasb etishini anglata boshladi. Badiiy asarlar tarkibida voqealar rivojiga asos bo'luvchi qahramon ma'lum bir makon va zamonda harakatlanadi. Bu tushunchaning o'ziyoq rus adabiyotshunosi M. Baxtin qarashlarining naqadar dolzarb ekanligini asoslaydi.

Bugungi kunda xronotop nazariyasiga yondashuvlar ham, bu tushunchaning nazariy talqinlari ham turfa xil qarashlar va tushunchalar asosida boyitilmoqda. Zamonaviy fanda turli kontekstlardagi har qanday makon va zamonga (xronotop) oid o'zaro munosabatlarni tahlil va talqin qilish imkonini bera oladigan universal kategoriya shakllanganini qayd etish kerak.

Shuni ta'kidlash muhimki, xronotop masalasi fanlararo va kompleks xususiyatga ega. B. To'rayeva o'zining “Zamonaviy romanchilikda xronotop poetikasining qiyosiy-tipologik tadqiqi” mavzusidagi doktorlik ishida bu xususda quyidagi mulohazani bildiradi: “Dunyo adabiyotshunosligida xronotop asar voqea-hodisal-arining ketma-ketligi va jadalligini ifodalovchi kompozitsiya unsuri, obrazlarni tavsiflovchi hamda ijodkorning dunyo tuzilishi haqidagi tasavvuri, dunyoqarashini aks ettiruvchi adabiy-estetik kategoriya sifatida talqin qilinmoqda” [5, 5–6-betlar].

Bundan tashqari, xronotop muammosini o'rganish turli yo'nalishlarda olib borilayotgani haqida so'z yuritib, B. To'raeva qayd etadi: “Jahon adabiyotshunosligida xronotop kategoriyasining adabiy-estetik mohiyati va nazariy tamoyillari, tur va janrlar evolyusiyasi, modifikatsiyasi, badiiy asar arxitektonikasiga ta'siri, badiiy matn



semiotikasi, bir adabiy matn yoki bir qator matnlar doirasidagi zamon–makon shakllarining o'zaro to'qnashuvi, parallelligiga doir quyidagi ustuvor yo'nalishlarda tadqiqotlar olib borilmoqda: zamonaviy adabiyotshunoslikning dolzarb muammolaridan biri – baxtinshunoslik an'analarning davom ettirilishi; xronotop muammosining shakllanish tarixi, mohiyati, funksional ahamiyatining sinergetika, germeneytika, semiotika, kognitiv nuqtai nazardan o'rganilishi” [5, 7-bet].

Darhaqiqat, qayd qilingan mulohazalar XXI asrning birinchi choragidagi qarashlar sifatida ham e'tirof etilishi lozim. Shuning uchun ham olamning badiiy manzarasini yaratishda xronotop muhim rol o'ynashini yuqorida sanab o'tilgan uslublarning sintezi ham dalillaydi. Xronotopning badiiy asar qurilishidagi funksional rolini o'rganish hozirgi tadqiqotlarda tur va janr nuqtai nazardan ham tahlil qilinayotganini qayd etish lozim. Badiiy asardagi ma'lum bir voqelikning zamoni va makoni mavjud bo'lgani kabi, har bir tushunchaning asosida ham nazariy qarashlar va mulohazalar bo'lishi tabiiydir.

Z. Rahimov “Odil Yoqubov tarixiy romanlari poetikasi” mavzusida olib borgan tadqiqotida quyidagi fikrni keltiradi: “Badiiy asarda xronotop vositasidan turli voqelik va qahramon ruhiy-ma'naviy olamini ochishda unumli foydalaniladi” [6, 22-bet]. Yozuvchining tarixiy romanlaridagi xronotopning turfa xil poetik ifodalar uchun qo'llanilganligi, ba'zan asar qahramonlarining ruhiy-ma'naviy qiyofasini ochishga xizmat qilganligi asoslansa, ba'zan esa tarixiy muhitni yoritishga asos bo'lgani ta'kidlanadi. Bu tahliliy yondashuvlarda nazariy qarashlarning ilgari surilishida ham asoslar mavjudligini alohida qayd etish lozim.

Adabiyotshunos olimlar xronotopning shunchaki voqea-hodisalar foni emas, balki dolzarb va faol struktura hosil qiluvchi unsur ekanligini alohida ta'kidlagan. “Nasriy asarda xronotopning uslubiy dominant belgilari haqida so'z borganda, avvalo syujet va kompozitsiyani muvofiqlashtirib boradigan adabiy komponent tushuniladi. Badiiy xronotop kompozitsion tamoyilga bevosita aloqador, syujetga ham o'z o'rnida, navbatida keskin ta'sir ko'rsatadigan adabiy vaqt me'yorlarini yaxlitlashtiradigan tushuncha sanaladi” [7, 44-bet]. “Romaniy tafakkur taraqqiyotida badiiy mahorat va ijodkor konsepsiyasi” ishida D. Abduramanova shu fikrlarni ilgari suradi.

Agar bayon etilgan nazariy qarashlarga e'tibor qaratsak, xronotopning matn tarkibidagi funksiyasi asarning yaxlitligini yuzaga chiqarishda yoki syujet va kompozitsiyaning dialektik birligini ta'minlashdagi o'rni beqiyos ekanligi asoslangan va dalillanganligini kuzatish mumkin. Xronotopning badiiy funksiyasi barcha tur va janrlar imkoniyatidan kelib chiqib, matn yaxlitligiga bevosita ta'sir etishini unutmazlik kerak.

Umuman, she'riyatda ham badiiy xronotopning o'ziga xos funksiyasi haqidagi qarashlar va yondashuvlarni kuzatish mumkin. Hozirgi o'zbek she'riyatida xronotop poetikasiga doir tadqiqot olib borgan D. Xursanovning mulohazasi ham buni tasdiqlaydi: “Rus adabiyotshunosligida esa M. Baxtin, V. Xalizev, D. Lixachev, Yu. Lotman, V. Toporov, B. Egorov, A. Esin lirik xronotopda ko'proq makon ko'rinishlarini, zamon orqali tarixiy vaqtni, uning estetik kategoriyalarini, mifologik xronotopning badiiy asar tarkibi hamda tabiatidagi o'rnini, ularning harakatlarni nuqtalarini va amaliy ahamiyatini ilmiy-nazariy tadqiq etishgan” [8, 6-bet].

XULOSA VA TAKLIFLAR

Jahon va o'zbek adabiyotshunosligida xronotop poetikasi haqidagi qarashlar badiiy matnni chuqurroq anglash va ijodkor talqinini kengroq idrok etish imkonini beradi. Xronotop nazariyasi syujet va kompozitsiya yaxlitligini ta'minlashda, obrazlar va tarixiy jarayonlarni ilmiy tahlil qilishda muhim metodologik vosita sifatida xizmat qiladi.

Taklif sifatida, adabiyotshunoslikda xronotop yondashuvini kengaytirish, uni zamonaviy badiiy jarayonlar va tarixiy romanlar tahlilida qo'llash hamda milliy merosimizni shu asosda tadqiq etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baxtin M. Romanda zamon va xronotop shakllari. Tarixiy poetikadan ocherklar. Rus tilidan Uzok Jurakulov tarjimai. – Toshkent: Akademnashr, 2015. – 288 bet.
2. Uxtomskiy A. A. Dominanta i integralnyy obraz // A. Uxtomskiy. Dominanta. – Sankt-Peterburg: Piter, 2000. – 160 bet.
3. Politov A. V. Ontologicheskii smysl ponyatiya xronotopa v filosofskikh ideyakh A. Uxtomskogo i M. Baxtina. – 2014. <https://cyberleninka.ru>; <http://www.vestnik.vsu.ru> (murojaat vaqti: 07.09.2025).
4. Nasirov A. N. Badiylik va hayotiy haqiqat (“Yulduzli tunlar” va “Ona lochin vidosi” romanlari misolida). – Turkiya, Istanbul: KESIT, 2019. – 139 bet.
5. To'raeva B. Zamonaviy romanchilikda xronotop poetikasining qiyosiy-tipologik tadqiqi. Filologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi avtoreferati. – Buxoro, 2022. – 72 bet.
6. Rahimov Z. Odil Yoqubov tarixiy romanlari poetikasi. F.f.d. diss. avtoref. – Farg'ona, 2023. – 79 bet.
7. Abduramanova D. Romaniy tafakkur taraqqiyotida badiiy mahorat va ijodkor konsepsiyasi. Fil. f. b. fal. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Urganch, 2023. – 55 bet.
8. Xursanov D. Hozirgi o'zbek she'riyatida xronotop poetikasi. Fil. f. b. fal. dokt. (PhD) diss. avtoref. – Samarqand, 2020. – 51 bet.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №9

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.